JIZZAX VILOYATI G’ALLAOROL TUMANI HOKIMI QARORI

2022 - yil 10 - yanvar 6-3-45-Q/22 G‘allaorol tumani hokimligi

G’allaorol tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “2018-2022 yillarda O’zbekiston Respublikasida yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” to’g’risidagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2018-2019 yillarda amalga oshirish bo’yicha “Yo’l xaritasi”da harakat xafvsizligini takomillashtirish va yo’l-transport xodisalarining oldini olish bo’yicha topshiriqlar belgilab berilgan va 2019-yil 9-apreldagi “Yo’l harakati qoidalariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi 292-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo’yicha G’allaorol tuman yo’llardan foydalanish UKning 2021 yil 29 dekabrdagi 716-sonli xatini inobatga olib, yo’l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. G’allaorol tuman yo’llardan foydalanish UKning 2021 yil 29 dekabrdagi 716-sonli xatini ma’lumot uchun qabul qilinsin va maqullansin.

2. Tuman hududidagi davlat, mahalliy va ichki xo’jalik yo’llarida yo’l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari, o’quv muassasalari, aholi yashash punktlari va ichki yo’llarda yo’l sharoitidan

kelib chiqqan holda sun’iy yo‘l notekisliklari tashkil etilsin.

3. Bunda Yevroosiyo davlatlarining davlat me’yori **GOSTR 52605-2006** ga asosan mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo’llari va ichki ko’chalarga, o’quv muassasalari, maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga kengligini **40 sm.**dan, balandligini **7 santimetrdan** oshirmasdan, yo’l qatnov qismi kengligida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Tuman yo’llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Raxmonov) va tuman ichki ishlar bo’limi yo’l harakati xavfsizligi bo’linmasi (A.Ashurov) mahalla fuqarolar yig’ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo’l notekisliklarini yo’l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo’yicha zarur chora-tadbirlarni ko’rsin.

5. Mazkur qaror “ G’allaorol ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari A.Mamarajabov tuman ichki ishlar bo’limi boshlig’i B.Naimov zimmalariga yuklatilsin.

Туман ҳокими в.в.б **Qo‘chqorov T. T.**